

“NAVRO‘ZNOMA” ASARINING SHARQ ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Ergashova Marjona

Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

S.Tuliboyev

Ilmiy rahbar: TerDU, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan "Navro‘znoma" asarining tahlili keltirilgan bo‘lib, asardagi axloqiy, siyosiy va ta‘limiy masalalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Umar Xayyom hikmatlari, "Navro‘znoma" tarixiy- etnografik asar sifatida, Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari.

Badiiy adabiyot o‘zining qudrati bo‘lgan so‘z orqali insonlar qalbidan joy oladi. Adabiyotning ta‘sir ko‘lami makon va zamon tanlamay, kitobxon uchun ma‘no va mazmuni ifodalashdan qolmaydi. Sharq adabiyotida insonning o‘y- fikrlari, his-tuyg‘ulariga e‘tibor berish bilan birga, tarixiy syujetlardan ham unumli tarzda foydalanilgan.

Shuningdek, adabiyot, avvalo, insonlar mafkurasini kengaytirishi zarur. O‘zining yuksak mahorati bilan barcha jabhalarda faol ijod etgan shoir, yozuvchi va olimdan biri Umar Xayyomdir. Uning qalamiga mansub "Navro‘znoma" risolasi o‘zining bir qancha ajoyib xususiyatlari bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Navro‘znoma asarida Navro‘zning kelib chiqish tarixi, Sharq xalqlarining bu bayram bilan bog‘liq an‘ana va marosimlari keng yoritilgan, ko‘plab hikoyat va rivoyatlar keltirilgan.

Yozma manbalarda Navro‘zning qadimiyligiga ishora etuvchi talay rivoyatlar mavjud. Ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra, Navro‘z qadimgi eronliklarda Ahamoniylar davridan (miloddan avvalgi 558-330 yillar) boshlab odat tusiga kirgan. Navro‘z haqida eng to‘la ma‘lumotlar va aniq ilmiy xulosalar sharq yozma manbalarida - buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yillar) ning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Qonuni Mas‘udiy" va "At-tafhim" asarlarida, Umar Xayyomning (1054-1131) "Navro‘znoma" risolasida yozib qoldirilgan²⁹.

"Navro‘znoma" tarixiy- etnografik asarlar sirasiga mansub bo‘lib, unda O‘rta Osiyo va Eronda hukm surgan Ajam (arab bo‘lmagan) shohlar va ularning qilgan ishlari, faoliyatlari haqidagi asardir. Asarning nomi "Navro‘znoma" deb atalishi ham undagi asosiy mavzu Navro‘z bayramining kelib chiqishi, taraqqiy etishi bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga olganligidadir. Navro‘z bayrami juda qadimdan nishonlanib kelingan. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Navro‘z haqida shunday deb yozadi: "Navro‘z deb atalishining sababi shuki, Jamshid "Shohnoma"da keltirilishicha, qadimgi Eron podshohlaridan biri, o‘z saltanatida juda ko‘plab tadbirlar joriy etmish: jumladan, davlar tuzgan, odamlarni tabaqalarga ajratgan, u podshoh bo‘lgach majusiylar dinini yangiladi. Navro‘z bayramini ham u "Yangi kun", ya‘ni forscha Navro‘z deb atadi"³⁰. Bunday ma‘lumotlar "Navro‘znoma" asarida ham boshqacha talqin qilinadi. Erondagi Kayoniylar

²⁹ 1. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - Toshkent. 2004.

³⁰ Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - Toshkent. 2004.

sulolasining vakillari haqida ma'lumotlar keltirilib, o'sha davrdagi siyosiy tuzum ham yaqqol tasvirlab berilgan. Mamlakat podshohlaridagi illatlar va fazilatlar yashirilmay basluddek ko'rsatilgan. Ajam shohlari Kayumars, Jamshid, Gushtasp, Taxmuraps kabi obrazlar keltirilgan. Adolat, to'g'rilik, haqiqatgo'ylik, insoniylik, qadriyatlarga sodiqlik kabi xislatlar ulug'lanib, barchasi bir syujet orqali ko'rsatib o'tilgan.

"Navro'z"ning joriy qilinishi sababini aytsak, u shundan iboratki, Oftobning ikki aylanishi mavjud, ulardan biri quyidagicha: Oftob har uch yuz oltmish besh kunu kecha-kunduzning to'rtidan birida Hamal burjining birinchi daqiqasiga chiqib ketgan paytining o'zida yana qaytib keladi va har yili bu davr kamaya boradi"³¹. Muallifning o'zi bu jarayonni ifodalash uchun kalendar ham tuzadi. "Jamshid bu kunni tushungandan keyin Navro'z deb atadi va bayram qilishni odatga aylantirdi"³². Ushbu hikoyatlar muallifi tomonidan hikoya qilinsa-da, tarixiy haqiqatlarda aks etgan xalq og'zaki ijodi namunalaridan olingandir.

Har bir asarda, albatta, ijtimoiy tuzum, xalq ahvoli ozroq bo'lsa ham tasvirlanadi. "Navro'znoma" asarida podshohlar hali ekinlar yetilmasdan turib, yil boshi bo'lgan Navro'zdan boshlab soliqlarni yig'a boshlaydi, bu esa xalqqa juda og'irlik qilgan. Adib bu holat noto'g'ri ekanligini ilmiy dalillar asosida isbotlab bergan. Asarning keyingi qismlarida turli xil mavzular: oltin, dafna, uzuk, arpa va boshqa narsalarning kelib chiqishi hamda ularning inson hayotiga bo'lgan foyda va zararlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Yuqoridagilardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, bebaho xazina bo'lgan "Navro'znoma" asari tarixiy faktlarni chiroyli hikoyatlar orqali kitobxonga yetkazadi. Asarning ahamiyati barcha uchun bir xil bo'lib, unda haqiqiy podshohdan tortib oddiy insongacha tasvirlanib, hayotda uchrashi mumkin bo'lgan holatlar tarvirlangan. Har bir kitobxon asardan turlicha xulosalarga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - Toshkent. 2004.
2. U. Xayyom. Navro'znoma. - Toshkent. 2018.
3. N. Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent. 2017.
4. A. Firdavsiy. Shohnoma. - Toshkent. 2010.

³¹ N. Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent. 2017.

³² A. Firdavsiy. Shohnoma. - Toshkent. 2010.